

AHKOM OYATLARIDAN HUKM CHIQARISHDA LEKSIK OMILLAR O'RNI:  
LINGVISTIK VA FIQHIY TAHLIL

Ulug'bek Mirsadikov,

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotastiya.** Mazkur maqolada ahkom oyatlaridan hukm chiqarishda arab tilining leksik xususiyatlari va lug'aviy omillar muhim o'rinni tutishi ilmiy tahlil qilinadi. Qur'onini karim oyatlaridagi so'zlarning turli ma'nolari, mushtarak so'zlar va grammatik ifoda vositalari fiqhiy hukm chiqarishda turli yondashuvlarga asos bo'ladi. Tadqiqotda arab tili lug'aviy va grammatik bilimga ega bo'lish naqadar muhim ekani islom huquqiy nuqtai nazaridan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar.** Ahkom oyatlari, leksik omillar, lug'aviy tafsir, fiqh, grammatik tahlil, mushtarak so'zlar, qiroatlar.

**Аннотация.** В данной статье исследуется значение лексических факторов и языковых особенностей арабского языка в извлечении норм из ахкам-аятов Корана. Рассматриваются различные толкования слов, их многозначность и грамматические аспекты, играющие важную роль в формировании исламских правовых решений.

**Ключевые слова.** Ахкам-аят, лексические факторы, толкование, фикх, грамматический анализ, омонимы, виды чтения.

**Abstract.** This article examines the role of lexical factors and linguistic features of Arabic in deriving rulings from legal verses of the Qur'an. Various word meanings, lexical ambiguity, and grammatical devices are analyzed as foundations for different jurisprudential approaches. The importance of advanced linguistic knowledge for proper interpretation within Islamic law is substantiated.

**Keywords.** Ahkam verses, lexical factors, linguistic interpretation, fiqh, grammatical analysis, polysemy, recitations.

**Kirish.** Ahkom oyatlari islom huquqi va fiqli uchun asos hisoblanadi. Ular orqali Qur'onini karimdan to'g'ri hukm chiqarish uchun arab tilini chuqur bilish talab etiladi. Faqatgina tartibli tarjima yoki soddalik bilan cheklanish ilmiy jihatdan yetarli emas. Arab tilining so'z boyligi, lug'aviy chuqurligi, grammatik o'ziga xos jihatlari, mushtarak ma'noli so'zlar oyatlarning mohiyatini anglashda va tafsirda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Material va metod.** Ahkom oyatlaridan hukm chiqarishda leksik omillar o'rni birlamchi omillardan sanaladi. Nafaqat ahkom oyatlari balki har qanday oyatning ma'nosini anglash, tafsir qilish hamda hukm chiqarish uchun arab tilining lug'aviy va grammatik jihatlarini mukammal bilish talab etiladi. Ahkom oyatlarida esa bu talab yanada muhimroq. Islom

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*VIII son, Iyul*

huquqi ya'ni fiqh ilmiga kirsoqchi bo'lgan olim uchun avvalo arab tili grammatikasi hamda uning so'z boyligidan yaxshi bilish eng birinchi shart hisoblanadi.

Sirojiddin al-Isnnaviy aytadi "Arab tilini bilish shariatimizni Qur'onne anglash va u haqida kelgan xabarlarni bilish uchun vojibdir", Ibn Hazm aytadi: Faqih kishi albatta nahvchi va tilshunos bo'lishi shart, agar shunday bo'lmasa u nuqsonli bo'lib, ismlar ma'nosini bilmagani hamda xabarlarni tushunishdan uzoq bo'lgani sabab u fatvo berish mumkin emas". Buning o'ziga yarasha bir qancha sabablari bor, bulardan eng muhimlari ahkom oyatlaridagi ko'rsatmalarning qanday ma'noni ifoda etishi, uning majburiy yoki tavsiyaviy xarakterga ega ekanini anglash hisoblanadi. Chunki gohida oyatdagi buyruq gohida majburiy ma'noda emas tavsiyaviy ma'noda bo'lishi va aksincha xabar maylidagi oyatlarda buyruq mazmuni ifodalangan bo'lishi mumkin.

Ahkom oyatlaridan chiqadigan hukmlar shu oyatdagi so'zlarning leksik xususiyatlariga bevosita bog'liq. Aynan bir so'zning bevosita o'zi yoki boshqa so'zlarga birikishi orqali turli ma'nolarga dalolat qila oladi.

Ayni bir oyatdan chiqadigan hukmlarning turli hil bo'lishida quyidagi omillarni sanab o'tish o'rinni:

- 1) So'zda bir qancha ma'noning mushtarak ekani
- 2) So'zning haqiqiy yoki majoziy ma'nosini e'tiborga olinishi
- 3) "Harf" ya'ni ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning vazifaviy ma'nolari

So'zdagi "mushtaraklik" bu bir so'zning bir biridan farq qiladigan bir necha ma'noni ifoda eta olish xususiyatidir. Masalan arab tilida "عين" ('ayn) so'zi "ko'z", "buloq", "ayni o'zi" va boshqa bir qancha ma'nolarga ega. Bunday holatlarda so'zning qaysi ma'noda qo'llanilgani uning yonidagi qarina ya'ni yordamchi omillar orqali bilib olinadi<sup>1</sup>.

Mushtaraklik xususiyati so'z turkumlaridan ism, fe'l hamda harf kabilarning barchasiga taalluqli. Mushtarak so'zlarning aynan qaysi ma'nosini e'tiborga olinishiga qarab olimlar aynan bir oyatdan o'z mazhabiga ko'ra turli hukmlar chiqarganlar.

Ismlarning mushtaraklik xususiyatiga misol sifatida "yad" - qo'l so'zini olish mumkin. Arab tilida "yad" so'zi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Barmoq uchidan yelkagacha bo'lgan a'zolar
2. Kaft va bilak
3. Kaftning o'zi

Moida surasining 38 oyatida o'g'rilik qilgan kishining qo'li kesishga buyuriladi ammo "yad" ya'ni qo'ldan murod qo'lning aynan qaysi qismi ekani borasida mazhab olimlari o'rtasida har xillik bor.

Hanafiy olimlaridan Imom Moturidiy o'zining Ta'vilot asarida buni quyidagicha ifodalaydi:

*"Qo'l" so'zi barmoqdan qo'ltingqacha joyga ishlatsa ham qo'lni kesish haqidagi xitob qo'lning ba'zi qismiga tegishli, bu ham bo'lsa kaft, chunki odamlar bu haqda turli fikrlar*

<sup>1</sup> Абдулваҳҳоб Абдуссалом Товила. Асар ал-Луга фи ихтилаф ал-мужтаҳидин. Қоҳира: Дар ас-Салам. – Б. 89

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

aytgan bo'lsalar ham lekin qo'l qo'liqdan ham tirsakdan ham kesilmasligi borasida yakdil fitkrdalar, balki qo'lning bundan quyi qism borasidagi turli xillik bor. Ba'zilar kaft emas balki barmoqlar kesiladi deyishgan. Bizning nazdimizda barmoqlar kaft bilan qo'shib kesiladi, chunki narsalar u bilan tutiladi va olinadi<sup>2</sup>"

Shuningdek bir so'zning o'zini gapda qaysi vazifada kelayotgani e'tiboridan ham hukmlar o'zgarishi mumkin.

Mazkur fikrlarni ahamiyatini yanada chuqurroq anglash uchun Qur'oni karimdag'i bir qancha misollarga murojaat qilish mumkin:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا إِذَا قُفْتُمْ إِلَى الصَّلَاةِ فَاغْسِلُوا وُجُوهُكُمْ وَأَيْدِيْكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ وَامْسَحُوا بِرُءُوسُكُمْ وَأَرْجُلُكُمْ إِلَى الْكَعْبَيْنِ [المائدة: 6]

Ey, imon keltirganlar! Namoz (o'qish)ga turar ekansiz, albatta, yuzlaringizni, qo'llaringizni tirsaklarigacha yuvingiz, boshlaringizga mas'h tortingiz va oyoqlaringizni to'piqlarigacha (yuvingiz)! (Moida-5)

Bu oyatning bir qancha qiroatlari mavjud bular quyidagilar:

Qiroat imomlaridan Nofe', Ibn Omir, Ya'qub, Hafs va Kisoiy so'zinining harakatini "arjulakum" deya nasb ya'ni tushum kelishigida o'qiganlar. Qolgan qiroat imomlari esa jarr ya'ni qaratqich kelishigida "arjulikum" deya o'qiganlar. Ba'zi kam uchraydigan holatlarda raf' ya'ni bosh keligshikda o'qilgan.

Mazkur qiroatlardan kelib chiqqan holda fihh sohasi olimlari tomonidan chiqarilgan hukm ham turli xil bo'lgan, agar bu so'zni tushum kelishigida o'qilsa oyoqni yuvish farz ekanini ifodalaydi, agar qaratqich kelishigida o'qilsa yuvish emas balki mas'h tortish farz ekanini kelib chiqadi.

Ali, Ibn Abbos, Anas, Ikrima, Sha'biy va Shi'alardan Imomiya mazhabi vakillari oyoqqa mas'h tortish kerakligini aytgan bo'lsalar<sup>3</sup> qolgan olimlar oyoqni yuvish farz ekanini ta'kidlaganlar. Bunday masalaning kelib chiqishiga asosiy sabab oyatdag'i "oyoqlaringiz" so'zini qanday o'qilishi va qaysi so'zning uyushiq bo'lagi (ma'tuf) sifatida kelishidir.

**Natijalar.** Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Qur'oni karimdag'i har bir oyatning to'liq va chuqur mohiyatini anglash uchun arab tilining lug'aviy va grammatik jihatlarini yaxshi egallash zarur. Ayniqla ahkom oyatlaridagi ba'zi so'zlarning bir necha ma'noga egaligi (mushtaraklik), ularning haqiqiy va majoziy ma'nosi, harf va bog'lovchi so'zlarning ohangi, qiroatdagi tafovutlar turli fiqhiy hukmlarga sabab bo'ladi. Masalan, "yad" (qo'l) so'zining qaysi qismga ishora qilishi yoki "arjulakum" (oyoqlaringiz) so'zining o'qilishi mazhab olimlari orasida turlichalish berilishiga olib keladi.

**Munozara.** Ahkom oyatlaridan hukm chiqarishda arab tili bilimining chekliligi huquqiy xatolarga yoki noto'g'ri fatvolarga olib kelishi mumkin. Mushtarak so'zlar va grammatik tafovutlar sababli bir oyatdan bir nechta yondashuvlar paydo bo'ladi. Bu holat tafsirchilarning tafovutli va hamda ijtimoiy-diniy masalalarda to'g'ri yo'nalish tanlashida

<sup>2</sup> Абӯ Мансур Мотуридий. Таъвилот аҳл ас-Сунна. Байрут: Дарул Кутубил Илмия, 2005. –Ж. 3. –Б. 505.

<sup>3</sup> [https://islamweb.net/ar/library/index.php?page=bookcontents&ID=41&bk\\_no=94&idfrom=57&idto=58](https://islamweb.net/ar/library/index.php?page=bookcontents&ID=41&bk_no=94&idfrom=57&idto=58)

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

muhim o‘rin tutadi. Qolaversa, qiroat farqlari ham fiqhiy qarorlarning xilma-xilligiga sabab bo‘ladi. Analytical yondashuv so‘z va grammatik omillarni chuqur o‘rganishga undaydi.

**Xulosa.** Ahkom oyatlari ustida izlanish olib borishda arab tilining lug‘aviy va grammatik xususiyatlari bosh omillardan biri sifatida har doim e’tiborga olinishi zarur. Faqih va tafsirchi har bir so‘z va iboraning barcha mumkin bo‘lgan ma’nolaridan xabardor bo‘lishi, mushtaraklik, grammatik vositalar va qiroat tafovutlariga e’tiborli bo‘lishi kerak. Ana shundagina zamonaviy va ilmiy islom tafakkurida to‘g‘ri fatvo va yondashuvlar paydo bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Sh.Jo‘zjoni. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. – T.: TIU, 2002. – 255 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usul fiqh. – Toshkent: Sharq: 2010. – 574 b.
3. عبد الوهاب عبد السلام طويلة. أثر اللغة في اختلاف المجتهدين. دار السلام: 2000 عدد الصفحات: 480
4. د. عبد الله محمد الجعكي. اختلاف معاني حروف الجر وأثره على تفسير النصوص القرآنية واستنباط الأحكام منها. الحروف: (من) و (إلى)
5. أحمد بن علي الرازي الجصاص. أحكام القرآن
6. عبد الكريم حامدي أثر القواعد الأصولية اللغوية في استنباط أحكام القرآن
7. <https://www.feqhweb.com/vb/forumdisplay.php?f=82&s=4894e3189d5e693e381c4cb4b13c9234>
8. <https://www.feqhweb.com/vb/t20720.html>
9. Аз-Захир. – Б. 52; Бидоя ал-мужтаҳид. 2/147–148